**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining 2023-yil iyul-dekabr oylari uchun**

**ISH REJASI**

| T/R | Chora-tadbirlarning nomi | Ijro muddati | Erishiladigan natija |
|---|---|---|---|
| **1.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “**2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini** "Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmonida belgilangan topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | iyul-dekabr | Muhokama yakunlari bo‘yicha Hay’at yig‘ilish bayoni rasmiylashtiriladi.Inspeksiyaning chora-tadbirlar rejasi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborot Qishloq xo‘jaligi vazirligiga kiritib boriladi. |
| **2.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organ rahbar xodimlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-son farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash. | iyul-dekabr | Har dushanba kuni ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha Inspeksiya boshlig‘i huzurida kengaytirilgan yig‘ilishlar o‘tkazilib, yig‘ilish bayonlari rasmiylashtiriladi.<br>“O‘zagroinspeksiya” tizimida qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarining amalga oshirilishi bo‘yicha nazorat va hisobdorlikni tashkil etish tartibi hamda tizimda ishlarni tashkil qilish va ijro intizomini mustahkamlashning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha harakatlar rejasi asosida ishlar tashkil etiladi. |
| **3.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora- | avgust | Tizimdan foydalanuvchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratiladi, tizimni takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi. |

| T/R | Chora-tadbirlarning nomi | Ijro muddati | Erishiladigan natija |
|---|---|---|---|
| | tadbirlari to‘g‘risida” PQ-357-son qaroriga asosan Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish Inspeksiyasining “Uzagroin.uz” yagona axborot tizimini takomillashtirish. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali Agroinspeksiya tomonidan transport vositalarida ko‘rsatiluvchi davlat xizmatlarini joriy etish. | | |
| **4.** | Qishloq xo‘jaligi yerlarini muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining mansabdor shaxslari yoki boshqa xodimlari tomonidan Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi vakolati doirasidagi qonunchilik talablarini buzish holatlari bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ma’muriy jazolarni qo‘llash huquqi bilan bog‘liq vazifa va funksiyalar Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasiga o‘tkazilishi munosabati bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan **Qonun loyihasini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda Qishloq xo‘jaligi vazirligiga kiritish.** | sentabr | Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi natijasida qishloq xo‘jaligi yerlarini muhofaza qilish bo‘yicha nazorat funksiyalarini amalga oshirish imkoni paydo bo‘ladi. |

| T/R | Chora-tadbirlarning nomi | Ijro muddati | Erishiladigan natija |
|---|---|---|---|
| **5.** | Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini majburiy yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish faoliyatini amalga oshiradigan tadbirkorlik subyektlariga axborot xavfsizligi talablarini inobatga olgan holda **“Texnikalar texnik ko‘rigi” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kirish imkoniyatini yaratish.** | sentabr | Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini majburiy yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi “**Texnikalar texnik ko‘rigi”** avtomatlashtirilgan axborot tizimidan tadbirkorlik subyektlari foydalanish imkoniyati yaratiladi. |
| **6.** | Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari uchun har besh yilda va davlat nav sinash uchastkalari va tajriba xo‘jaliklari uchun har uch yilda tuproqning agrokimyoviy tahlili o‘tkazilmaganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortish bo‘yicha **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan Qonun loyihasiga takliflar ishlab chiqish**. | oktabr | Amaldagi MJtK yangi tahrirda qabul qilinib, amaliyotga joriy qilinadi. |
| **7.** | Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini ishlab chiqaruvchi yoki maxsus savdo tashkilotlarida xaridorlarga sotilgan yangi texnikalar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan hujjatlar bilan birga O‘zagroinspeksiyada ro‘yxatdan o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan **“Hisob-** | iyul | Mahalliy ishlab chiqaruvchilar yoki xorijiy davlatlardagi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetkazib berilayotgan texnikalarni ortiqcha hujjat aylanmasini kamaytirish, qonun buzilish holatlarini oldini olish, tadbirkorlik subyektlariga texnikalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda yengillik yaratiladi. |

| T/R | Chora-tadbirlarning nomi | Ijro muddati | Erishiladigan natija |
|---|---|---|---|
| | **ma'lumotnoma" berish amaliyotini joriy etish**. | | |
| **8.** | Manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalari holatini nazorat qiladigan inspektorlarning maxsus kiyimi yoki taniqlik belgilari va ularni kiyib yurish qoidalarini nazarda tutuvchi **Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish**. | oktabr | Texnikalar holatini nazorat qilish inspektorlari tomonidan xizmat vazifalarini to'laqonli bajarish, ya'ni bunda inspektor tomonidan qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarining texnik holati va ularning ekspluatatsiya qilinishi samaradorligi ustidan nazoratni samarali tashkil etish imkoni yaratiladi. |
| **9.** | Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligiga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 641-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida kelgusi yil hosili uchun urug'lik maqsadlarida ekilgan kartoshka maydonlarida dala aprobatsiya ko'riklarining o'tkazilganligi va aprobatsiya komissiyalari tomonidan hujjatlashtirish ahvolini **Samarqand viloyat qishloq xo'jaligi va Urug'chilikni rivojlantirish boshqarmalarida o'rganish**. | oktabr | Respublikada 2024-yil hosili uchun qishloq xo'jalik korxonalarini navlari genetik jihatidan toza, zararkunandalar bilan zararlanmagan, kasalliklarga chalinmagan hamda ekishga yaroqli urug'lik kartoshkadan foydalaniladi.<br>Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'riladi. |
| **10.** | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyundagi "Qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikalarini sinash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4760-son qarori 10-bandi topshirig'i ijrosini ta'minlash | Har chorak yakuni bilan | Mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan va xorijiy davlatlardan olib kelingan texnikalarni O'zbekiston iqlim sharoitiga mosligi bo'yicha o'tkazilgan sinov jarayonlari sifati yanada yaxshilanadi va sinovdan o'tkazilgan texnikalarni yagona davlat reestriga kiritilishi |

| T/R | Chora-tadbirlarning nomi | Ijro muddati | Erishiladigan natija |
|---|---|---|---|
| | maqsadida qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalari sinovi sinov shartlariga qat’iy rioya qilingan holda o‘tkazilishi hamda yagona davlat reestriga kiritilgan qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalaridan ekinlarni yetishtirishda foydalanilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish.. | | ta’minlanadi. O‘tkazilgan nazorat natijalari bo‘yicha vazirlikka axborot kiritib boriladi |
| **11.** | Boshoqli don ekinlari seleksiyasi va birlamchi urug‘chiligi bilan shug‘ullanuvchi ilmiy tadqiqot institutlari va ularga qarashli ilmiy tajriba stansiyalari hamda “Urug‘chilikni rivojlantirish markazi”ga qarashli Elita urug‘chilik xo‘jaliklari tomonidan 2024- yil hosili uchun boshoqli don ekinlarining yuqori avlodli urug‘liklarini belgilangan tartiblarga rioya qilgan holda ekinboplik sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha muvofiqlik sertifikati asosida realizatsiya qilinganligini hamda maxsus tajriba-sinov maydonlarida birlamchi urug‘liklarni ko‘paytirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni **Andijon viloyatidagi “Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti” va “O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti”ning Andijon filialida** o‘rganish. | noyabr | Respublikada boshoqli don yetishtiruvchilarni kelib chiqish hujjati mavjud bo‘lgan, sifati kafolatlangan, sertifikatlangan urug‘liklar bilan ta’minlanadi.<br>Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko‘riladi. |

| T/R | Chora-tadbirlarning nomi | Ijro muddati | Erishiladigan natija |
|---|---|---|---|
| **12.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son qaroriga asosan korxonalarning paxta texnik chigitini to‘liq texnologik siklda maqsadli qayta ishlaganligi hamda ularning mahsulot sifatini tasdiqlovchi **gigiyenik xulosa va muvofiqlik sertifikatlariga ega ekanligi ustidan nazoratni** olib borish. | iyul-dekabr | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17 yanvardagi PQ-3479-sonli Qarori 2-bandi *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktabrdagi PF-6094-sonli Farmoniga ilovaning 7-bandi tahririda)* va 2021-yil 2 iyundagi PF-6240-sonli Farmoni 3-bandi ikkinchi xatboshisida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi ta’minlanadi.<br>Shuningdek, ushbu nazorat tadbirlarini amalga oshirish orqali yuqori likvidli yoki monopol tovarlarni, ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy mahsulotlar narx-navolari keskin o‘sishiga, bozorda talab va taklif muvozanatini ta’minlashga erishiladi. |
| **13.** | 2023-yil paxta hosilini yig‘ishtirish mavsumida paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarish tashkilotlari va klasterlari hamda koperatsiyalari tomonidan paxta xom-ashyosini qabul qilishda sof (fizik) vazn bilan konditsion vazn o‘rtasidagi farqlarning haqqoniyligi va chegirmalarning adolatli qo‘llanilishi yuzasidan nazorat o‘rnatish hamda kelib chiqadigan e’tirozli nizolarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish. | sentabr-noyabr | Paxta xom-ashyosi (mahsulotlari) sifati, navi, iflosligi va namligi bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida nizoli masalalar joyida hal etiladi. |
| **14.** | Ochiq maydonlarga qabul qilingan boshoqli donni hosilini yopiq sig‘imlarga kiritilishini belgilangan grafiklarga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish. | iyul-dekabr | Qabul qilingan donni yog‘in-sochinlarga qoldirmasdan ochiq maydondan mavjud yopiq sig‘imlarga kiritilib, donning sifatli saqlanishi ta’minlanadi.<br>Natijasi bo‘yicha tahliliy ma’lumot Qishloq xo‘jaligi vazirligiga (Vazirlar Mahkamasiga) axborot kiritib boriladi. |

| T/R | Chora-tadbirlarning nomi | Ijro muddati | Erishiladigan natija |
|---|---|---|---|
| **15.** | Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari hamda tumanlar (Quvasoy shahar) bo‘limlari inspektorlari tomonidan viloyat ichida va viloyatlararo tashishlarda donlarning sifatini to‘liq nazorat qilib borish hamda donning aylanmasini sun’iy ravishda oshirilishiga olib keladigan rejasiz tashishlar hajmini qisqartirilishi ustidan doimiy nazoratni kuchaytirish, tabiiy kamayish miqdorlarini qisqartirilishini nazorat qilish. | iyul–dekabr | Donning aylanma harakati doimiy nazorat qilib boriladi, viloyat ichida va viloyatlararo tashishlarda donning sifatini sun’iy ravishda o‘zgartirib yozish hamda rejasiz tashishlarning oldi olinadi.<br>Shuningdek donda ortiqcha nobudgarchiliklarning oldi olinib, tabiiy kamayish miqdorining qisqartirilishiga erishiladi.<br>Natijasi bo‘yicha tahliliy ma’lumot Qishloq xo‘jaligi vazirligiga axborot kiritib boriladi. |
| **16.** | “O‘zagroinspeksiya” huzuridagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi” tizimidagi sertifikatlash organlari va laboratoriyalarida mahsulotlardan namunalar olish, sinovdan o‘tkazish va sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish va amaliy yordam ko‘rsatish. | iyul-dekabr | “O‘zagroinspeksiya” huzuridagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi” tizimidagi sertifikatlash organlari va laboratoriyalarida mahsulotlarni sertifikatlash va sinash qoidalariga rioya etilishi ta’minlanadi.<br>Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha har chorakda axborot tayyorlanadi. |
| **17.** | “O‘zagroinspeksiya” faoliyatiga yanada ochiqlik berish hamda tizimda amalga oshirilayotgan ishlar targ‘iboti yuzasidan Inspeksiya rahbari va sohaviy boshqarma boshliqlari ishtirokida o‘tgan davr mobaynida Inspeksiya erishgan natijalar xususida OAV larda intervyular uyushtirish hamda rahbariyat ishtirokida matbuot anjumani o‘tkazish. | avgust-dekabr | “O‘zagroinspeksiya” faoliyatiga yanada ochiqlik berilib, tashkilot shaffofligi erishiladi va tizimda amalga shirilayotgan islohotlar bilan jamoatchilik vakillari yaqindan tanishadilar.<br>Natijasi bo‘yicha ommaviy axborot vositalari hamda Inspeksiya rasmiy veb-saytida muntazam yoritib boriladi. |

| T/R | Chora-tadbirlarning nomi | Ijro muddati | Erishiladigan natija |
|---|---|---|---|
| | Markaziy apparat tomonidan ushbu tadbir **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Milliy matbuot markazi va Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazida** o‘tkaziladi. | | |
| **18.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 595-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablarini Inspeksiyaning hududiy boshqarmalarida o‘rganish. | iyul-dekabr | Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik sub’ekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan guvohnomalar berilishi tartibga olinadi. |
| **19.** | “O‘zagroinspeksiya” tizimida Me’yoriy hujjatlar ijrosini nazorat qilish, metrologiya va sertifikatlash yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan xodimlarni O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi Standartlar institutida malakasini oshirish. | iyul-avgust | Xodimlar metrologiya, standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish va muvofiqlikni baholashga oid yangi Qonun va qonunosti hujjatlarning mazmun-mohiyati bilan tanish-tiriladi. Bu bilan sohada o‘tkaziladigan nazorat tadbir-larining samaradorligi oshadi va qonuniyligi ta’minlanadi.<br>Natijasiga ko‘ra, axborot va taklif kiritiladi. |